


## 2019-yilning yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 1438,4 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi.


Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 214,2 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,1 % ga o'sish qayd etildi.




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa korxonalarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ularning hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,0 % to'gri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etgan holda 964,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilda ko'rsatkichga nisbatan 7,4 % punktga kamayib, 18,1 % ni tashkil etdi va 260,0 mlrd. so'm miqdori qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,9 % ni tashkil etdi.

### jami qurilish ishlaridagi ulushi




## Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd. so`m)



Hududlar kesimida qurilish ishlari tarkibida Qarshi shahrining qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari viloyat bo'yicha jami hajmning 26,9 % ni yoki 387,0 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarildi. Qarshi shahrida yirik qurilish tashkilotlari hamda kichik korxona va mikrofirmalarning ko'pligi hisobidandir.

Shu bilan birga Qarshi shahrida "Vatanparvarlar bog'ining " foydalanishga topshirilishi, ko'p qavatli turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlarining katta hajm bo'lishini ta'minlamoqda.

**Hududlarda qurilish ishlaringin o'sish suratlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan )**



Qurilish ishlaringin hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati;

**Chiroqchi tumanida** (143,1 %) kuzatildi:

- Ushbu tumanda qurilish ishlaringin asosiy qismi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan turar joylar qurish hisobiga;


**Mirishkor tumanida** (136,5 %) kuzatildi:

- Qurilish ishlaringin asosiy qismi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilishlar hisobiga;

**Kitob tumanida** (124,4 %) qurilish ishlaringin yuqori o'sishiga sabab:

- Yangi usti yopiq suv inshoati, basketbol maydonchasi va sun'iy qoplamlali futbol maydonchasi qurilishi asos bo'lmoqda.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan)




Hududlar kesimida jami qurilish ishlarining eng katta qismini Qarshi shahrining (26,9 %) ulushi tashkil qilmoqda. Bunday katta ulushga ega bo'lishi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'proq qurilish ishlari bajarilganligi bilan izohlanadi.

Keyingi o'rnlarda Koson (11,2 %) va Qarshi (11,0 %) tumani bormoqda. Jami qurilishdagi eng past ulushga ega bo'lganlar, Nishon (1,9 %) hamda Dehqonobod (2,1 %) tumaniadir. Bu ikkala tumanda ham, yirik qurilish tashkilotlari yo'qligi bilan izohlanadi.

**Qurilish ishlari hajmi**

	Yirik qurilish tashkilotlari (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shudavriga nisbatan, % da	Kichik korxona va mikrofirmalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Norasmiy sektor (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>214,2</b>	<b>142,1</b>	<b>964,2</b>	<b>102,5</b>	<b>260,0</b>	<b>90,9</b>
<b>Qarshi sh</b>	58,0	117,7	312,0	93,3	17,0	2,8 m
<b>Shahrisabz sh</b>	34,0	198,4	69,9	90,8	6,1	98,0
<b>tumanlar:</b>						
<b>G'uzor</b>	1,5	114,8	36,3	89,5	21,6	113,1
<b>Dehqonobod</b>	-	-	11,6	2,5 m	19,0	95,3
<b>Qamashi</b>	-	-	25,5	56,9	20,1	2,4 m
<b>Qarshi</b>	0,1	14,1	136,0	104,5	22,0	90,9
<b>Koson</b>	103,7	151,9	39,5	60,5	17,1	58,0
<b>Kitob</b>	-	-	58,4	180,5	30,2	78,9
<b>Mirishkor</b>	-	-	23,3	5,3 m	17,0	68,9
<b>Muborak</b>	8,8	84,4	41,4	91,8	8,8	4,4 m
<b>Nishon</b>	-	-	7,9	27,4	18,7	2,8 m
<b>Kasbi</b>	3,0	4,3 m	28,6	89,6	21,1	105,8
<b>Chiroqchi</b>	-	-	89,5	3,7 m	19,6	39,3
<b>Shahrisabz</b>	-	-	27,5	105,2	8,0	108,8
<b>Yakkabog'</b>	5,1	6,3 m	56,8	113,1	13,7	57,8

### Hududlar kesimida qurilish ishlari



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 67,0 % ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi quyidagi tumanlarda nisbatan yuqori Qarshi sh, Chiroqchi va Qarshi tumanlarida qayd etildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Dehqonobod tumani hamda Nishon tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 18,1 %i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Kitob (11,6 %) hamda Qarshi (8,5 %) tumanlarida kuzatildi. Eng past ko'satkich esa Shahrisabz shahrida (2,4 %) qayd etildi.





## Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



### Binolar va inshoatlarni qurish

Binolar va inshoatlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 1,6 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning shu davridagi ko'rsatkichga nisbatan 11,1 % punktga ko'payib, 74,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,3 % punktga kamayib, 25,6 % ni tashkil etdi.

### Fuqarolik obyektlarini qurish



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 38,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 61,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,9 % punktga ko'paydi.

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi va 55,9 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga esa 44,1 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 1,4 % punktga kamaydi.




**Binolar va inshoatlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari 1015,1 mlrd.so'mni tashkil qildi.**

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 184,4 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 230,7 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi.



## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1360,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,6 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 77,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 5,4 foizini tashkil qildi.



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi**  
**bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

**A.Isaev**  
**(75) 221-32-47**